

Date: 13th March-2025

INGLIZ-O‘ZBEK TILIDAGI SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMALARINING
PROPOZISIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Muratxodjaeva Feruza Xotamovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universiteti, G‘arb tillari kafedrasida dosenti



Inson umri davomida borliqni anglab, o‘zlashtirib boradi. Bu jarayon bilish sifatida baholanadi. Dunyoni bilishning muhim vositalari mavjud bo‘lib, birlamchi sistema sifatida ko‘rish, eshitish, ta‘m bilish, hid bilish, teri sezgisi kabi signal vositalari qayd etiladi. Til ikkinchi signal sistemasi sifatida bilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Birinchi signal sistemasi orqali tilning funksiyasini bajarish mumkin emas. Ammo tilning xususiyatlari birinchi signal sistemasi funksiyasini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Dunyoni sezgi a‘zolari orqali idrok etishda miya faoliyati belgilovchi o‘rin tutadi. Tashqi olam belgilari (qattiqligi, yumshoqligi, issiqligi, sovuqligi, kattaligi, kichikligi, yashilligi, xushbo‘yligi) haqidagi axborot miyaga sezgi a‘zolari orqali uzatiladi va o‘z navbatida miyaning reaksiyasi natijasida borliq o‘zlashtiriladi.

Moddiy olamni til orqali bilishda miya mahsuli bo‘lgan ong, uning faoliyati mahsuli bo‘lgan tafakkur belgilovchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tilning fonetik-fonologik sathi mazmun qiymatiga ega bo‘lgan fonemalar haqida ma‘lumot bersa, lug‘at sathi borliqdagi nomlarni, narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatning lisoniy ongda ifodasi, milliy-madaniy belgilarini talqin etadi.

Sintaktik sath birliklari o‘zlashtirilar ekan, lisoniy ongda voqe-hodisa, narsa-buyum, uning belgilari, harakat-holat haqida bilim hosil bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda so‘zlovchi va tinglovchi muloqotiga asoslangan diskursda sub‘ektiv munosabat, til egasining milliy-madaniy qadriyatlarini, so‘zlovchining bahosi ham o‘z ifodasini topadi.

Sintaksis sohasida ham tizimli yondashuv asosida yangicha qarashlar, yo‘nalishlar, ilmiy maktablar shakllandi.

Mazmuniy sintaksis kognitiv tilshunoslik tushunchalariga tayanib ish ko‘radi. Mazmuniy sintaksisda birikmaning ma‘nosi, ifodalash usullari tahlil qilinadi. Lisoniy ongda fonetik-fonologik sath nutq tovushi, leksik sath tushuncha haqida, sintaktik sath mazmun, fikr haqida axborot hosil qiladi.

Lisoniy ongda hosil bo‘ladigan sintaktik konseptni ifodalovchi kognitiv tilshunoslik birliklaridan biri proposisiyadir. *Propozisiya* mazmuniy sintaksisga aloqador tushuncha bo‘lib, sintaktik birlik (so‘z birikmasi, gap bo‘lagi, gap)da ifodalangan ob‘ektiv borliq bo‘lagi, voqelik, vaziyatdir. Masalan, *binu qurildi* birikmasi uchun so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, modallik belgilari ham talab etiladi. Men o‘quvchiman gapi sintaktik shakl sifatida ikki mazmunni ifodalagan. Qiyoslang:

1. *Men o‘quvchiman – I am schoolboy. Men o‘quvchiman – I am reader.*

Mazmuniy sintaksisda gap mazmuni ikki unsur – ob‘ektiv va sub‘ektiv mazmundan iborat deb qaraladi. Ob‘ektiv mazmun gapda aks etgan proposisiya (*diktum*), sub‘ektiv mazmun voqelikka so‘zlovchining munosabati (*modus*)dir.

Date: 13th March-2025

Sintaktik birikuv asosida ifodalangan mazmun diktum, ya'ni propozisiyadir. Gap faqatgina mazmuni ifodalovchi shakl emas, balki so'zlovchining munosabatini ifodalovchi nutq ko'rinishi hamdir. Shuning uchun, modus, ya'ni modallik gapni shakllantiruvchi zarur qism sifatida qaraladi: P (propoziya) + M (modus) = gap.

Propozisiya mavzusi tadqiqotlarda nazariy jihatdan tahlil qilingan. L.Kuznesova zamon propozisiyasining ifodalanishi xususiyatlarini gazeta materiallari asosida tahlil qilgan. Olima tomonidan zamon tushunchasini ifodalovchi birliklar kompleks tarzda ajratilgan, propozitiv xarakterdagi belgilarning namoyon bo'lishi, ichki til tizimidagi o'rni, rus tilini kommunikativ-pragmatik aspektda tavsiflashdagi ahamiyati yoritilgan. Propozisiyaning nazariy masalalari tahlil etilgan. Ko'p propozitivlik jihatlariga ham e'tibor qaratilgan. Propozisiya ta'limoti keyingi yillarda rivojlanib borayotgan grammatikaning semantik nazariyasi sifatida baholangan. Semantik konstanta (propozisiya)ning sub'ektiv belgi (modallik bilan) munosabati izohlangan. Tadqiqotlarga tayanib, propozisiyaning uch xil yondashuv asosidagi ko'rinishini ajratilgan: diktum propozisiya – gapning barcha sub'ektiv mazmunidan kelib chiqadigan ma'no, ish-harakat holati. Modus propozisiya – vaziyatning nutqdagi ifodasi. Bunga ko'ra propozisiya ish –harakat holatigina emas, so'zlovchining vaziyatga munosabati, qarashini ham o'z ichiga oladi. Mantiqiy propozisiya –vaziyatning ifodalanishi, matnning giperstrukturasini ifoda etadi.

O.Siganskaya rus va ingliz tili materiallari misolida sintaktik konseptni propozisiya xilma-xil ifodasi hamda sodda gap struktur sxemasi namoyon bo'lishining kognitiv modeli sifatida talqin qilgan. Tadqiqotda sintaktik konseptning diskurs uchun aktual bo'lgan ob'ektlarning olam manzarasi fragmentlari bilan aloqadorligining kognitiv modeli sifatida talqin qilingan. Sintaktik konseptlarning asosiy modellari, ularning tavsifi va tasnifi, diskursni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Olam manzarasini lisoniy ongda modellashtirishning kognitiv jarayonlari sifatida – kategoriyalashtirish, nomlash, predikatsiyalash jarayonlari keltirilgan. Bu o'rinda nisbatan qiyin jarayon sifatida qiyoslash, kon'yunksiya (sliyaniya), diz'yunksiya (rasshepleniya), negasiya (rad etish) qayd etilgan. Nutqiy tafakkur faoliyatining kognitiv proseduralari sifatida uch jihat tilga olingan: vaziyat bahosi (kognitiv modelning diskurs jarayonidagi tuzilishi), nutqiy ifodani obrazli-sxemaviy tarzda rejalashtirish (kommunikatsiya asosida turuvchi olam manzarasi fragmentlarining modelini qurish), tayanch so'zlar negizida ifoda etilgan mazmunning harakatdagi ichki nutq sxemasini tuzish – nutqni idrok etishning bu bosqichida tayanch so'zlar olam manzarasi fragmentlarining kalit tushunchalari sifatida reprezentativ konseptlar maydonga chiqadi.

O.Siganova sodda gaplardagi sintaktik konseptni propozisiya ifodalanishining kognitiv modeli sifatida tadqiq qilar ekan, dastavval, sodda gaplarni ikki komponentli va ko'p komponentli sintaktik konseptga ajratadi. Tadqiqot natijasida aniqlangan 9 sintaktik konsept modelini keltirgan: ekzistensial (SK0), stativ (SK1), aksional (SK2), dinamik (SK3), eksperimental (SK4), relyasion (SK5), inflyuent (SK6), ko'chish (SK7), ichki holat (SK8) sintaktik konseptlari.

O'zbek tilshunosligida XX asrning 70-80-yillaridan til birliklarini tizim sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy talqinlar keng yoyildi. Sh.Rahmatullaev,



Date: 13th March-2025

I.Qo'chqortoev, A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, E.Begmatov, O.Bozorov, Sh.Iskandarova, A.Sobirov, Sh.Safarov, M.Hakimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari tizimli tahlil namunasi hisoblanadi.

Dissertasiyada O.Siganskaya tomonidan ishlab chiqilgan modellarga asoslanib, ingliz va o'zbek tillaridagi sodda gaplarda sintaktik konseptni propozisiya orqali ifodalashning kognitiv modellarini tahlil qildik.

Ekzistensial sintaktik konsept (EK0) – 0 shakl sifatida keltirilgan eng sodda gaplarda ifodalanadi. Bunda konsept nomlash xarakteriga ega bo'lib, predikativ munosabat grammatik vositalar asosida ko'rsatilmaydi: Hayot. Men!

You are. Genius!

Stativ konsept (EK1). O'zbek va ingliz tillarida turg'un semantik qiymatga ega bo'lgan monopropozitiv sodda gaplar kuzatiladi: *Bu – Sulton. Suv – hayot manbai. Idish – sopoldan. We are students. She is obsessed with reading.* Konseptning nomlash belgisiga ko'ra diskurs ob'ekti sifatida nom yuzaga chiqqan. Kategoriyalashtirishda ma'lum bir toifaga, kategoriyaga tegishlilik ifodalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Xotamovna, M. F. (2024). TRANSLATION DIFFICULTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS FROM ENGLISH INTO UZBEK. *IMRAS*, 7(11), 103-107.
- 2.Xotamovna, M. F. (2025). KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI. *SO'NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(1), 188-190.
- 3.Xotamovna, M. F. (2025). LISONIY SHAXS TUSHUNCHASI VA UNING PSIXOLOGIK TUZILISHI. *ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR*, 7(75), 15-17.
- 4.Xotamovna, M. F. (2024). LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK MATNLARIDAGI REALIYALAR TASNIFI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(30), 305-307.

